

Brifing: "O'zkiyosanoat" AJ tizimiga 2026-yilning birinchi yarim yilligida kelib tushgan murojaatlar tahlili

// 24.07.2026

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/brifing20260724>

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, ularni qonunchilik talablari asosida o'z vaqtida va xolisona ko'rib chiqish hamda murojaatlarda ko'tarilgan masalalarga yechim topish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2026-yilning birinchi yarim yilligi davomida "O'zkiyosanoat" AJ ijro apparati hamda tarmoq korxonalariga jami **1090 ta murojaat** kelib tushgan.

Jumladan:

- 452 tasi – og'zaki;
- 326 tasi – yozma;
- 312 tasi – elektron shaklda qabul qilingan.

Kelib tushgan barcha murojaatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqildi.

Xususan:

- 570 ta murojaat bo'yicha murojaat egalariga huquqiy tushuntirishlar berildi;
- 359 ta murojaat ijobiy hal etildi.

Mazkur natijalar murojaatlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari bilan ochiq muloqotni ta'minlash hamda ko'tarilgan masalalarni amaliy hal etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samarasini aks ettiradi.

Ijro apparatiga kelib tushgan murojaatlarning hududlar kesimidagi tahliliga ko'ra, eng ko'p murojaatlar quyidagi hududlar hissasiga to'g'ri kelgan:

- Navoiy viloyati – 56 ta;
- Toshkent viloyati – 32 ta;
- Qashqadaryo viloyati – 15 ta;
- Toshkent shahri – 11 ta;
- boshqa hududlar va chet davlatlar – 9 ta;
- Farg'ona viloyati – 6 ta.

Murojaatlar mazmuni tahliliga ko'ra, asosiy masalalar ishga joylashish, mineral o'g'itlar xaridi, homiylik yordami ko'rsatish, hamkorlik masalalari, mineral o'g'itlar eksporti hamda boshqa yo'nalishlarga oid murojaatlardan iborat bo'lgan.

Hisobot davrida ijro apparatiga kelib tushgan murojaatlarning 101 tasi jismoniy, 46 tasi esa yuridik shaxslar tomonidan yuborilgan.

Murojaatlarni muntazam tahlil qilish, ularda ko'tarilayotgan masalalarni tizimli o'rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralarni amalga oshirish murojaatlar bilan ishlash sifatini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

